

«Иисус». (Действительно, это было одним из пунктов раскола)».

Эта особая бережность, особое внимание к фонетическому облику иноязычного имени есть одно из свойств нашей самобытности, российской национальной психологии. Одна из устойчивых черт русской культуры - авторитет слова. Как писал Ю.М. Лотман: [6] «Это привело к совершенно неизвестному в Европе авторитету словесного искусства - литературы». Утверждение, что поэт - пророк истины, а поэзия - язык богов, в России XVIII-XIX веков воспринималось буквально. В самом деле, для русского менталитета является центральной, фундаментальной такая особенность, как «тотальная словесность», специфическое «лингвистическое чутьё», поэтому русская культура - это всегда особое лингвокультурное пространство, в котором любые макро- и микродинамические изменения характеризуются тесной связью глобальных социально-культурных процессов и языка. Всякий момент русской культурной истории имеет соответствующее вербальное оформление, отражающее основные черты его мироощущения и миропонимания.

Таким образом, культура - цемент здания общественной жизни. И не только потому, что она передается от одного человека к другому в процессе социализации и контактов с другими культурами, но также и потому, что формирует у людей чувство принадлежности к определенной группе. По всей

видимости, члены одной культурной группы в большей мере испытывают взаимопонимание, доверяют и сочувствуют друг другу, чем посторонним. Их общие чувства отражены в сленге и жаргоне, в любимых блюдах, моде и других аспектах культуры.

Язык - явление социальное. Им нельзя овладеть вне социального взаимодействия, т.е. без общения с другими людьми. Хотя процесс социализации в значительной мере основан на имитации жестов - кивков, манеры улыбаться и хмуриться, - язык служит основным средством передачи культуры. Другой его важной чертой является то, что на родном языке практически невозможно научиться говорить, если его основной словарный запас, правила речи и структуры усвоены в возрасте восьми или десяти лет, хотя многие другие аспекты опыта человека могут быть полностью забыты.

Хотя язык является могучей объединяющей силой, в то же время он способен и разобщать людей. Группа, использующая данный язык, считает всех, говорящих на нем, своими, а людей, говорящих на других языках или диалектах, - чужими.

Язык - универсальное хранилище национального самосознания, свойств характера в грамматических категориях. Есть языки с преимущественно глагольным (динамическим) изображением действительности, а есть - с именным (статическим) обозначением понятий. Этот последний тип языка характерен для становления индийской и греческой культур и соответственно для развития поздней европейской логики.

Литература

1. Аверинцев С.С. Другой Рим : избр. ст. / Сергей Аверинцев ; [предисл. А. А. Алексеева]. - СПб. : Амфора : изд. Седова, 2005 (ГПП Печ. Двор). - 364, [2] с. ISBN 5-94278-922-3
2. Ерасов Б.С. Социальная лингвистика. - М.: Аспект-Пресс, 2003.
3. Кравченко А.И. Культурология. - М.: Академический Проект, 2003. -С. 496.
4. Кравченко А.И. Культурология: Словарь. - М.:Академический проект, 2004. -С. 671.
5. Культурология: Хрестоматия (Сост. проф. П.С. Гуревич) - М.: «Гардарики», 2005. -С.592.
6. Лотман Ю.М. Семиотика культуры и понятие текста // статьи по семиотике культуры и искусства. - СПб.: Академический проспект, 2002.
7. Мамонтов С.П. Основы культурологии. - М.: Олимп; Инфра-М, 2005. -С. 320.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақола тилни ижтимоий ҳодиса сифатида қўриб чиқади. Тилни ижтимоий ўзаро таъсирдан ташқарида яъни, бошқа одамлар билан мулоқот қилмасдан ўзлаштирилиши мумкин эмас. Ижтимоийлашув жараёни асосан имо-ишораларга тақлид қилишга асосланган бўлса-да бош силкитиш, табассум ва қовғини буриш – тил маданиятни узатишнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилади.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается язык – как социальное явление. Им нельзя овладеть вне социального взаимодействия, т.е. без общения с другими людьми. Хотя процесс социализации в значительной мере основан на имитации жестов - кивков, манеры улыбаться и хмуриться, - язык служит основным средством передачи культуры.

SUMMARY. This article examines the language as a social phenomenon. It cannot be mastered outside of social interaction, i.e. without communicating with other people. Although the process of socialization is largely based on the imitation of gestures - nodding, manners of smiling and frowning - language serves as the main means of transmitting culture.

UDK: 81'373.2:821.111:821.512.133

BADIIY ONIMLARNING KONNOTATIVLIK XUSUSIYATLARI

M.Baxtiyorova – o'qituvchi

Al-Buxoriy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Oriental universiteti

Tayanch so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, atoqli ot, badiiy onomastikon, konnotatsiya, madaniyat.

Ключевые слова: лингвокультурология, имя собственное, художественная ономастика, коннотация, культура.

Key words: cultural linguistics, proper noun, literary onomasticon, connotation, culture

Kirish. Onomastikonlarni kategoriyalashtirish jarayonida inobatga olinadigan xususiyatlardan biri konnotativlik kategoriyasidir. Ma'lumki, har bir til belgisi axborot uzatish bilan bir qatorda, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir o'tkazish vazifasini ham bajaradi. Shu jumladan, onomastikonlar ham biror bir emotsional baho mazmunini ifoda etish qiymatiga egadir. Masalan, quyidagi holatlarda onomastikonlar faqat mantiqiy xabar tashuvchi vazifasini o'tayotganligini kuzatamiz: – *To'lqin beshikchi ustaga gapirayotgani bilan ko'zlari katta ko'cha tomonda edi: ana, zira sotuvchi bola ko'rindi. To'lqin unga kuzatuvining birinchi kunidayoq e'tibor bergan edi. U yo'l chetida to'xtagan mashinaga ildam yaqinlashadi. Ko'zlari jav-*

diraydi. Bozorga kiraverishdagi gumbaz yonida esa uch yigitcha o'tiribdi. To'lqinning gumoni shularda. (Said Ahmad: 3).

Boshqa holatlarda esa onomastikonlar mazmuni emotsional-baho bo'yoyqlari bilan boyiganligini ko'ramiz: – *Faye was the motherly type... She was a bosom to cry on, a soother and a stroker*, *Faye, the essence of motherness, began to think of Kate as her daughter* [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til birliklarining lingvodidaktik xususiyatlarini maxsus o'rgangan S.G.Ter-Minasova ularning alohida kategorial belgilarga ega ekanligini e'tiborga olish muhimligini uqitradi. Olimaning ta'kidlashicha, konnotativlik, ya'ni axborot tashish bilan

birgalikda, emotsional ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega bo'lish ularning vazifaviy va semantik mohiyatini belgilaydi [10]. Fikrimizcha, ushbu berilgan ta'rif til birligi sifatida onomastikonlarga ham tegishli bo'lib, ularning konseptual to'laqonlilikka ega bo'lishi, ya'ni ma'nosining ma'lum mantiqiy struktura – mazmunga mos kelishi ularning nominativ funktsiya bajarishidan guvohlik beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Onomastikonlarni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolardan biri – bu ularning leksik ma'nosi bilan bog'liq muammodir. Bugungi kunga qadar qancha bahslar bo'lsa, shuncha fikrlar saqlanib qolmoqda. Onomastik birliklarning ma'nosi muammosi bo'yicha xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni uchta asosiy guruhga – asemantiklik, ya'ni onimlarning ma'nosi yo'q degan nuqtayi nazar, semantiklik, ya'ni onimlar keng ma'noga ega degan nuqtayi nazar va ikkalasining ham xususiyatlarini birlashtirgan, go'yoki birinchi va ikkinchi nuqtayi nazarlarni "yarashtiradigan" nuqtayi nazarga ajaratish mumkin.

Birinchi konsepsiyaga ko'ra, onimlar doimiy tushunchalar signifikatlarning ifodalanishi bilan hech qanaqa tarzda bog'lanmaydi, onim hech narsani anglatmaydi, chunki atoqli otga ega bo'lgan obyektning xususiyatlari to'g'risida hech narsa aytmaydi, faqat mos keladigan boshqa onimlar orasidan uni ajratadi. Onimlar doimiy tushunchalarni ifodalash bilan bog'liq emas va anglatayotgan predmetlari haqida axborot tashishga qodir emas. Hozirgi kunda ushbu yondashuv tanqidiy baholanmoqda, masalan, D.I.Rudenko o'z asarlaridan birida ta'kidlaydiki, "bema'ni otlar" deb nomlanadigan mantiqiy kategoriya tilda qo'llanishi mumkin emas, chunki "bema'ni ot" tabiiy til maqomiga ega bo'lmaydi [6].

Ikkinchi yo'nalish onim faqat nutqda, maxsus tanlangan nutq qurshovida va alohida nutq muhitida qo'llangan paytdagina to'liq ma'noga ega bo'lishi mumkinligiga asoslanadi. Ayrim xorij tilshunoslarning fikricha, onomastik semantika – semantikaning batamom maxsus turi bo'lib, subyektiv, ijtimoiy shartlangan omillar ham, referent so'zlovchida paydo qiladigan hissiyotlar ham ism semantikasiga kiradi [6].

Uchinchi yo'nalish tarafdorlari tilda ham, nutqda ham ism ma'nosining mavjudligini da'vo qiladi. Fransuz tilshunoslari P.Siblo va S.Lerua, atoqli otlardan yasalgan nomlarni yoki neologizmlarni yaratish borasidagi empirik kuzatuvlar asosida, atoqli otlar nutqda hamda asosiy ma'nodan chetga chiqib qo'llanganda ma'no hosil qilish qobiliyatiga ega degan xulosaga kelishadi: semantik maydon bo'lmaganda, turg'un semalar vositasida atoqli otning ifodalanishini tasvirlab bo'lmaydi [4].

Tahlillar va natijalar. Keltirilgan nazariy tahlillarga kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarda, birinchidan, bir-birlariga o'xshash jihatlarni namoyon qiladi, ya'ni tilni o'rganishda integrativ yondashuv, "til – inson" va "inson – til" diadasiga maksimal diqqat e'tibor qaratilsa, konseptlar va olam manzarasi muammolari tadqiq qilinsa, ikkinchidan, bu tushunchalar har ikkala fanda turlicha talqin qilinishi ko'zga tashlanadi.

Onimning barcha qayd etilgan xususiyatlari juda muhim bo'lib badiiy nomlashda dolzarblasha bormoqda, chunki badiiy kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda har bir so'z alohida, kontekstga bog'liq bo'lgan ma'noga ega bo'ladi. Atoqli otning badiiy matndagi funksional yuki oshib bormoqda, boisi u badiiy obraz yaratishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Atoqli ot ega bo'lgan (xususan, ijtimoiy va etnomadaniy xususiyatli) konnotatsiyalar, so'zlovchilarning lisoniy ongida ismi (antropim) orqali nom sohibining vazifalarini tavsiflab beruvchi onomastik stereotip sifatida o'z aksini topadi. Onomastik stereotipdan foydalanish jarayonida onomastikon estetik ahamiyat orttirishi mumkin va badiiy matnda "gapiruvchi familiyalar" yordamida qahramonning

xususiyatlarini tavsiflash maqsadida faol qo'llaniladi. Bunday hollarda onomastik o'yin orqali ijobiy ta'sirga muallifning ham, o'quvchining ham ongida mavjud bo'lgan va muallifga onimni idrok etishning odatiy bo'lmagan matnini yaratish imkonini beruvchi onomastik stereotipni qayta tiklash orqali erishiladi.

Onomastik stereotipning assotsiativ xarakterga ega, ya'ni gapiruvchining tilda onomastikon yaratish va undan foydalanish modellari / usullari haqidagi nisbatan barqaror fikrlarini aks ettiruvchi ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Onomastik o'yin yozuvchi uslubining o'ziga xos xususiyatiga aylanishi mumkin, bu madaniy ma'lumotlarni uzatish uchun maxsus "kod" sifatida uning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish muhimligi bilan shartlanadi. Hozirgi kunda tilshunoslik doiralarda onomastikani umumiy o'rganish, xususan, nutq va tilda onomastikonlarning faoliyat yuritishi, semantika masalalari va, shuningdek, badiiy matn kontekstida estetik onimlar (ayniqsa, estetik antroponimiya)ning rolini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tadqiqotchilar ba'zan bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan fikrlarni bildirishadi, misol uchun, O.S.Axmanova, N.I.Tolstoy, K.D.Levkovskaya, N.D.Arutyunova, A.A.Reformatskiy kabi tilshunos olimlar onomastikonlarni "konnotativ qobiliyatga ega bo'lmagan", "bo'sh" (ma'nosiz), "nuqsanli" so'zlar sirasiga kiritib qo'yishga moyil bo'lsalar, boshqalari, aksincha, onomastik birliklarning ekspressiv-ifoda imkoniyatlariga ijobiy baho beradilar. Xususan, O.Espersen, V.I.Bolotov, V.A.Kuxarenko, G.Suit, A.V.Superanskaya va ularning izdoshlari nomning nutq darajasida, ya'ni nutq muhiti konteksti va kommunikativ vaziyatda ekstralingvistik o'sishiga asoslangan onomastikonlar keng qatlamining ma'no (konseptual mazmun)ga ega bo'lish qobiliyatini rad etmaydilar. J.S.Millning fikriga ko'ra, atoqli otlar hech qanday konnotativ xususiyatga ega emas va ularni turdosh otlardan farq qiladigan hech qanday belgisi yo'q [9]. Ingliz mantiqshunosi X.Jozef esa butunlay qarama-qarshi fikrni bildiradi [9].

Bir qator fransuz tadqiqotchilari, jumladan, Parij universiteti professori P.Kadio (P.Cadiot) til va nutqda atoqli otlar va turdosh otlarning deyarli to'liq "tengligi" pozitsiyasiga amal qiladi. Onomastik leksikaning murakkab va ko'p qirrali tizimi talablari, birinchi navbatda, shundan iboratki, uning qo'llanish sohalarini real (ya'ni, kundalik hayotda uchraydigan) va estetik (ya'ni, muallifning shaxsiy ijodi natijasi bo'lgan va badiiy asar sahifalarida uchraydigan) onimlarga bo'linish chegarasini aniq belgilash kerak. Muayyan u yoki bu guruhga mansubligiga ko'ra, real yoki estetik bo'lishidan qat'iy nazar, onimning vazifalaridan kelib chiqib onomastikonlarni o'rganish va talqin qilishning o'zi ham turlicha bo'ladi. Shunday qilib, real onomastikonlar ijtimoiy farqlovchi funktsiyani bajaradi (yagona subyekt yoki obyektga ataydi), estetik onimlar esa, aksincha, badiiy asar sahifalarida bevosita atash javobgarligidan tashqari, qo'shimcha semantik yoki stilistik ma'nolarni anglatishi mumkin (personaj xarakteri, davr, ijtimoiy muhit, shuningdek, muallifning orzu o'ylarini ifodalaydi). Masalan, quyidagi parchaga e'tibor qiladigan bo'lsak:

- *"Ot aylanib qozig'ini topadi, deganlar. Tug'ishgan yer, el-yurtini unutish osonmi? Kelganingga biz ham, otabobolarning arvohi ham xursand, qirmonni yengib, tinchlik bolsa, sen ham uy-joy qilarsan, bola-chaqali bolarsan", — deyishardi keksalar. Ular Doniyorning yetti pushtini surishtirib, uning qaysi urug'dan ekanligini, ovuldagi ba'zi bir tug'ishganlarining kimligini ham aytib berishdi. Xullas, ovuldagilar: "Doniyor dunyoga yangi kelgandek bo'ldi", deyishadigan bolishdi (Ch.Aytmatov. 8), yozuvchi tomonidan qo'llangan "Ot aylanib qozig'ini topadi", "tug'ishgan yer", "otabobolarning arvohi", "qirmonni yengib", "bola-chaqali bo'lmoq", "yetti pusht", "qaysi urug'", "ovuldagi tug'ishganlar", "dunyoga yangi kelgan" jumllalarining ma'nosini tushunib olishi uchun*

o'quvchidan matnda tasvirlangan hikoyaning bo'lib o'tgan davri, joyi haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda, yozuvchi murojaat qilgan, tilda mavjud bo'lgan stilistik vositalar haqida ham yetarlicha bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Estetik onomastika haqida gapirganda, adabiy matnda onomastikonning ulkan konnotativ va ekspressiv salohiyati aks etishini ta'kidlab o'tish joiz. Onomastikon matnning ma'noviy semantikasini yaratishda ishtirok etadi va uning boshqa elementlari bilan bir qatorda muallif niyatlari hamda asarning badiiy g'oyasini ifodalashning verbal vositasi hisoblanadi. Onomastikon o'zining adabiy ma'lumotlarning ma'lum miqdorini kodlay olish qobiliyati tufayli matnning yetakchi birliklaridan (ayniqsa, sarlavhada, matnning boshida va oxirida, ya'ni "kuchli" deb atalmish pozitsiyalarda) asosiyiga aylanadi. Shu o'rinda, onomastikonlar sarlavha vazifasini o'tagan asarlardan misollar keltirib o'tish maqsadga muvofiq: *"Alpomish"*, *"Jamila"*, *"Zumrad va Qimmat"*, *"Go'ro'g'li"*, *"Chinor"*, *"Amir Temur"*, *"Xatiko"*, *"Qashqadaryo"*, *"Turon"*, *"Romeo and Juliet"*, *"Rebecca"*, *"King Arthur"*, *"London"*, *"Wolf"*, *"Sister Carrie"*, *"Don Juan"* – bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin, ingliz, o'zbek, va yana ko'plab boshqa xalqlar adabiyotida ham bu kabi misollarni cheksiz uchratish mumkin.

Biroq, o'quvchi (retsipient – qabul qiluvchi)ga ma'noviy axborotni etkazib berish qobiliyati bilan birga estetik onimlar aynan o'sha ma'noviy axborotni "xabardor bo'lmagan"lar yoki o'zga madaniyat vakillari uchun yopiq qilib qo'yish xususiyatiga ham egadirlar. Gap shundaki, onomastikon har doim o'ziga xos milliy realiya bo'lib, u vaziyat, sharoit leksikasi bilan bog'liq, deyarli o'zgarmas hisoblanadi, boshqacha aytganda, onomastikon, qoidaga ko'ra, boshqa tilga tarjima qilganda muqobil variantiga ega emas, va ularning ma'nolari foydalanish va talqin qilish jarayonida obyektiv (mamlakat, davr, hukmron mafkura) va sof sub'ektiv (ijtimoiy mavqei, retsipientning ma'naviy rivojlanishi va intellektual darajasi) kabi ko'plab omillarga bog'liq holda farq qilinishi mumkin.

G.B.Stouning "Tom tog'aning kulbasi" (Uncle Tom's Cabin) asari qahramoni Tom tog'a (Uncle Tom) badiiy onimining motivatsion asos sifatida tagzaminida mavjud bo'lgan "xiyonat qilish", "sodiq xizmatkorlik" belgilarini tushuntirish o'sha madaniyat vakillari tafakkurida mavjud bo'lgan bilimlarning fenomenologik tuzilmalari – asar sujeti bilish asosida amalga oshiriladi, garchi Tom tog'a

yaxshi xulqli kekxa afro-amerikalik bo'lsa-da, asar syujetiga ko'ra u xo'jayiniga sodiq qoladi. Amerika jamiyatida irqiy kamsitishlarga qarshi davom etayotgan kurash kontekstida Tom tog'a afro-amerikaliklarning manfaatlariga xiyonat qilib, oq tanli xo'jayinga xayrixoh qolgan odam sifatida qabul qilinadi. Ikkilamchi nominatsiyada metaforik transformatsiya natijasida Tom tog'a (Uncle Tom) quyidagi konnotativ semalarni verballashtiradi: K1 – oq tanlilarga haddan tashqari bo'ysunuvchi afro-amerikalik; K2 – o'z madaniyatiga yoki jamiyatiga xiyonat qilgan shaxs, har ikki holatda ham mavjud bo'lgan o'ziga xos belgi "xo'rovchi", "haqoratli" xususiyatlari:

– "They call me *Uncle Tom*," he said, but added that he did not care about the hostility. "I feel nothing. I know that I am on the right side of this argument" (The Guardian).

O'zbek xalqining komik qahramoni Afandi badiiy onimi ham ikki darajali konnotativ semaga ega, bir tomondan, nihoyatda sodda insonni verballashtirsa, ikkinchidan, ushbu onim tagzaminida ayyor, o'z ishiga pishiq, aqlli, dono kabi ma'nolar mujassamlashadi:

– Iya, qiziq ekansiz-ku, singil! – cho'loq qandolatchi ovozi boricha shang'illadi. – *Afandi* eshaqi yo'qolganida bir qo'lida yantoq, bir qo'lida tezak ko'tarib, bozor aylangan ekan, buni yeb, buni anaqa qilganni ko'rgan bormi, deb. Siznikiyam shundan bo'ldi-ku (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari. 2015:124)

Xulosa va takliflar. Yaratilgan etnokonnotatsiyalar aksiologik baholash belgisi bilan xarakterlanadi. Baholovchi ma'nolar so'zning ta'rifida ham o'z ifodasini topishi mumkin, ham yashirin xarakterga ega bo'lishi mumkin. Yashirin xarakterdagi etnokonnotatsiyaning ijobiy yoki salbiy belgisini aniqlash uchun asos etnokonnotatsiyali birliklar mavjud bo'lgan kontekstlarni tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ikkilamchi badiiy onimlarning salbiy belgisi xususiyatlarni faollashtirish an'anasi mavjud. N.F.Alefirenkoning fikri buni tasdiqlaydi, uning ta'kidlashicha, ikkilamchi belgilar salbiy taassurotlarni ifodalaydigan eng yorqin va esda qolarli belgilar orqali hosil bo'ladi [7]. Salbiy yoki ijobiy baho til va madaniyat sohiblari tomonidan dunyoni idrok etish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanganligi sababli, ular u yoki bu lingvomadaniyat vakillari tafakkuridagi olamning milliy qadriyatlar manzarasiining o'ziga xos xususiyatlaridan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 320- b.
2. Aytmatov Ch. Jamila. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 31-b.
3. Hoshimov O'.Dunyoning ishlari. – Toshkent: «Sharq», 2015. 124-b.
4. Siblot Paul, Leroy Sarah. L'antonomase entre nom propre et catégorisation nominale. // *Mots. Les langages du politique* Année, 2000. 63 -P. 89-104
5. Steinbeck J.E. East of Eden. -L.: Penguin 7. Books, 2000. –P. 602.
6. Wilmet M. Nom propre et ambiguïté. //Langue française. 1991. № 92.
7. Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – Москва: «Гнозис», 2005. –С. 326.
8. Руденко Д.И. Собственные имена в контексте современных теорий референции. // Вопросы языкознания. 1988. № 3. – С. 55-68.
9. Суперанская А.В., Сталтмане В.Э., Подольская Н.В., Султанов А.Х. – Изд. 3-е. – Москва: «ЛИБРОКОМ», 2009. –С. 365.
10. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –Москва: «Слово», 2000. –С. 624.

REZYUME. So'nggi paytlarda tilshunoslikda til faqat muloqot vositasi sifatida emas, millatning madaniy ko'rsatgichi sifatida qaraluvchi tadqiqotlar juda ko'plab olib borilmoqda. Bu kabi tadqiqotlar xalq madaniyatining eng nozik qirralarini uning o'ziga xos bo'lgan tilida namoyon bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Bunday yondashuvlardan kelib chiqib, til nafaqat millatning zamonaviy mentaliteti, shuningdek, oldingi davr odamlarining dunyo, jamiyat, va o'zlari haqidagi fikrlarini ham tahlil etishni talab etadi. Maqolada badiiy asarlarda berilgan onomastikonlarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В последнее время в лингвистике проводится множество исследований, которые рассматривают язык не только как средство общения, но и как культурный показатель нации. В основе подобных исследований лежит идея о том, что самые тонкие стороны культуры народа проявляются в его уникальном языке. На основе таких подходов язык требует анализа не только современного менталитета нации, но и мыслей людей предыдущей эпохи о мире, обществе и самих себе. В статье раскрываются лингвокультурные особенности онимастикона, представленных в художественных произведениях.

SUMMARY. Recently, many studies have been conducted in linguistics, which consider language not only as a means of communication, but as a cultural indicator of the nation. Such studies are based on the idea that the most subtle aspects of the people's culture are manifested in its unique language. Based on such approaches, language requires an analysis of not only the modern mentality of the nation, but also the thoughts of the people of the past times about the world, society, and themselves. The article reveals the linguistic and cultural features of the onomasticons given in the literary works.